

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70230201-Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent

ЎЗР ОУМТВ

Еніпек № 397

• 79 • 08 2023 ГИП

ISHLAB CHIQILGAN:

- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «29» 08 dagi 397-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliv ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> magistratura mutaxassisligining tavsifi.....	4
1.1	<i>Qo'llanish sohasi</i>	4
1.1.1	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetenziyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetenziyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetenziyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3	<i>70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)</i> mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabi 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) – "Tillar" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u tegishli ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlerida tarjima faoliyatini tashkil etish, og'zaki va yozma tarjima ishlarini rivojlantirish, tarjimashunoslik ishlarini oqilona tashkil etish, tarjima resurslaridan oqilona foydalanish usullari, metodlari va uslublarining majmuasini kamrab oladi.

1.2.2. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- ta'lim muassasalarida ilmiy va pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- tegishli vazirliklar tizimi tashkilotlari;
- xalqaro turizm sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar;
- bojxona, nashriyot, radio va televideniye tizimi tashkilotlari;
- xorijiy mamlakatlar elchixonalari;

- turli davlat va nodavlat korxonalar;
- oliv va o‘rta maxsus ta’lim tizimi tashkilotlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari;
- ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot tashkilotlari.

1.2.3. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tarjimonlik faoliyati;
- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik faoliyat (o‘rnatilgan tartibda);
- konsalting xizmati faoliyati.

1.2.4. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (romangerman tillari) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70230201 – *Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)* mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘yektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tarjimonlik faoliyatida:

- yozma va og‘zaki tarjima usullarini egallashi va ulardan unumli foydalanishi;
- xalqaro tashkilotlar va ularning faoliyati haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llashi;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanishi;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ta’lim jarayonini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;
- mehnat jamoasining umumiyl maqsadlariga erishish, ijrochilarning faoliyatini monitoring qilish maqsadida individual va guruh faoliyatini vujudga keltirish;
- auditoriya va pedagogik jamoani boshqarish hamda o‘quv jarayonini o‘rnatilgan tartibda tashkil qilish;
- jamoa psixologiyasiga oid tizimli bilimlarni, tashkiliy ishlarda menejment asoslarini

qo'llashni bilish;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ekspert-tahliliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, induktiv va deduktiv kuzatish, tahlil qilish, baholash va statistik tahlil qilish.

Ta'lim muassasalarida ilmiy va pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

- oliv va o'rtta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- uzuksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- chet tillarni o'rganish va o'qitish sohasida mavjud holatning analitik obzorini ishlab chiqish;
- xorijiy manbalarni qiyoslab o'rganish va tarjima qilish bo'yicha tadqiqot guruhlarida ekspert sifatida qatnashish;
- mutaxassislikka aloqador yo'nalishlar bo'yicha bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

2. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan umumiyl talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini mustaqil tahlil qilish qibiliyatiga ega bo'lishi;
- kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalarini o‘zlashtirishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtiroy etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi va sinxron tarjimada erkin qo‘llay olishi;

- xalqaro anjuman va tadbirlarda tarjimon sifatida faoliyat yurita olishi;

- madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarni o‘z vaqtida bartaraf eta olishi;

- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

- patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olishi.

2.3. Umumiylar va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan umumiylar

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiylar va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorlprini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash: Magistrlik dissertasiyasining mutaxassislik bo‘yicha muhim hamda istiqbolli mavzulariga bag‘ishlangan, ilmiy jihatdan asoslangan, metodologik yo‘llari belgilangan, mazmuni tizimli shaklda ilmiy tadqiqotning asoslarini, uning bajarilishini va olingan natijalarini o‘zida aks ettiradi. Bunda

ilmiy faktlar har taraflama tahlil qilinadi va muayyan hodisaning ilmiy va amaliy ahamiyati isbotlanadi.

Mutaxassislik bo'yicha qo'yidagi ilmiy-pedagogik amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-pedagogik ish – mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayoniga tatbiq etish, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetentsiyalarni takomillashtirish qaratiladi, shuningdek, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar va o'quv rejalarini tuzish, mutaxassislik bo'yicha fanlardan nazariy, amaliy va mustaqil mashg'ulotlarni o'tkazish. Ilmiy-pedagogik ish oliv ta'lim muassasalarida va tashkilotlarning tadqiqot bo'limlarida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – ilmiy va kasbiy kompetentsiyalarni maqsadli ravishda takomillashtirish, mutaxassislik bo'yicha ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy sohadagi so'nggi yangiliklar, ishlanmalar va innovation texnologiyalarni o'rganish, shuningdek, eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish malakalarini takomillashtirish, tadqiqotchilik va mustaqil ilmiy izlanishlar malakalarini oshirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiyalar: Tilshunos-tarjimon, tadqiqotchi-pedagog

2.3.2. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1320	44
Tanlov fanlar	480	16
Ilmiy-pedagogik ish va ilmiy amaliyot	900	30
Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish	900	30

2.3.3. 70230201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1320	44	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AXT11-208	Amaliy xorijiy til	240	8	1-2
1.03	QTZY11-208	Qiyosiy tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari	240	8	1-2
1.04	MMT11-208	Madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik	240	8	1-2
1.05	MLING1204	Matn lingvistikasi	120	4	2
1.06	LKGFI204	Leksikografiya	120	4	2
1.07	MFM1304	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	3
1.08	BMS1304	Badiiy matn stilistikasi	120	4	3
		Tanlov fanlar	480	16	1-3
		Jami	1800	60	
	IIMD21-430	Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	900	30	1-4
	IPI23-414	Ilmiy pedagogik ish	420	14	3-4
	ILAM2416	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish	480	16	4
		Jami	1800	60	
		Hammasi	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, kredit-modul tizimi, magistatura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tarjima, tarjimashunoslik, og'zaki tarjima, yozma tarjima, badiiy tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, publisistik matn tarjimasи, madaniyatlararo muloqot, tarjima transformasiyalari, ilmiy-texnik tarjima, qiyosiy stilistika, qiyosiy tilshunoslik, amaliy tarjima, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy taddiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda
kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor v.v.b.

B.Kulmatov

2023 yil "



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil "

M.O'.

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti

Rektor

G.Rixsiyeva

2023 yil " " "

M.O'.



Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2023 yil "

M.O'

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Rais

S.Saidov

2023 yil " " "

M.O'.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 70230201—Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilar o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“___” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi S.Saidov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori B.Kulmatov birgalikda quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70230201—Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (roman-german tillari)

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5117-son qarorlari hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilar tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

S.Saidov

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rektori**

G.Rixsiyeva

**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori v.v.b.**

B.Kulmatov